

YOSHLAR TARBIYASIDA ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING AHAMIYATLI JIHLTLARI

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at fakulteti,

Tarix yo’nalishi 2-bosqich talabasi.

zulfiyaolimova98@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13283300>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarining tarbiyasida Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining tutgan o’rni va bu asardan o’rnak olish mumkin bo’lgan jihatlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Asarning yoshlar tarbiyasi uchun eng muhim bo’lgan jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, tarbiya masalalari, axloq, yaxshilik, yomonlik, xulq, saodat, fikr, axloqiy kategoriyalar, pedagog, do’stlik, hayo, so’z va aql, ilm, ezgulik, oliyanoblik.

SIGNIFICANT ASPECTS OF ABDULLA AVLANI'S WORK "TURKISH GULISTAN OR MORALITY" IN YOUTH EDUCATION

Abstract. This article provides detailed information about the role of Abdulla Avloni's work "Turkish Gulistan or Ethics" in the education of today's youth and the aspects that can be taken as an example from this work. The most important aspects of the work for the education of young people are highlighted.

Key words: the work "Turkish Gulistan or morality", issues of education, morality, good, bad, behavior, happiness, thought, moral categories, pedagogue, friendship, modesty, speech and mind, knowledge, goodness, nobility.

ЗНАЧИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ АБДУЛЛЫ АВЛАНИ «ТУРЕЦКИЙ ГУЛИСТАН ИЛИ НОРАЛЬ» В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о роли произведения Абдуллы Авлони «Турецкий Гулистан или Этика» в воспитании современной молодежи и аспектах, которые можно взять в качестве примера из этого произведения. Выделены важнейшие аспекты работы по воспитанию молодежи.

Ключевые слова: произведение «Турецкий Гулистан или мораль», вопросы воспитания, нравственности, добра, зла, поведения, счастья, мысли, моральных категорий, педагога, дружбы, скромности, речи и ума, знаний, добра, благородства.

Bugungi globallashuv sharoitida zamon birgalikda yosh avlodning ham fikr-mulohazalari, qarashlari tobora o'zgarib ketmoqda. Yoshlarimizni tarbiyali, go'zal xulqli, odobli va ilmi qilib tarbiyalash uchun ota-onalar, hamda ta'lim maskanida faoliyat yuritayotgan malakali pedagoglarimiz uchun mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Bu o'rinda biz Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan samarrali foydalanishimiz mumkin. Unda tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilgan. Bolalarni ilmi va tarbiya qilib tarbiyalash borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asari ma'rifatparvar jadidlarimizdan biri hisoblangan Abdulla Avloniy tomonida yozilgan. Mazkur asar 1913-yilda nashr etilgan. 1917-yilda esa ikkinchi marta nashr qilingan. Ushbu kitob dastlab, maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun darslik sifatida foydalanilgan. Binobarin asrimiz boshlaridagi o'zbek jadidchiligining noyob hodisalaridan hisoblangan bu asarning ahamiyati faqatgina maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq xavaskorlari uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Asarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan esa qaytaruvchi bir ilm ya'ni axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xalqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin har bir xulq ezgulik va oliyanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.

Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya "yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".¹

Abdulla Avloniy mazkur asarida axloqiy kategoriyalarga ham alohida to'xtalib o'tadi. Biz axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda o'quvchilarni ko'zda tutadi.

Abdulla Avloniy tarbiyaga shunday ta'rif beradi. "Tarbiya pedagogika ya'ni bola pedagogikasi demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasalig'a davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshu xulq" degan davoni ichidan "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdur" deydi. bu gaplar orqali adib pedagogni tabibga, poklik va yaxshi xulqni davoga qiyoslaydi. Avloniy tarbiyani uch guruhga ajratadi:

- Badan tarbiyasi
- Fikr tarbiyasi
- Axloq tarbiyasi

¹ Olim Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Toshkent.

Yosh bolalarda fikrlash iqtidorini shakllantirish, fikr tarbiyasi – benihoya zzarur va muqaddas bir vazifa hisoblanadi. Bolalarning qanday fikrlashi pedagogning o'zining fikrlashi va saviyasiga bog'liqdir. Agar pedagogning o'zi har tomonlama bilimli va yetuk shaxs bo'lsa, u tarbiya qilayotgan bolalar ham shunday fazilatlariga ega bo'ladi.

Avloniyning vijdon to'g'risidagi fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovordir. Adibning fikricha, vijdon – aql va tafakkur mezoni. Umuman olganda, bu tarzda yondashish vijdonning ahamiyati va mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Lekin unga bir ozgina aniqlik yetishmaydi. Vijdon tarozisining aql va hikmatga muvofiq ishlariga muhabbat hissini uyg'otib, qabohat ba yomon ishlarga nisbatan nafrat hissini uyg'otmoq aslida to'g'ri tushuntirish hisoblanadi. Biroq uning butunlay to'g'rilik darajasi yaxshi yoki yomon deb nomlanadigan muayyan hodisaga nisbatan qo'llanilgandagina aniqlashadi. Vijdon haqida gapirganimizda yana shuni misol qilishimiz ham mumkinki, faarzandning onaga nisbatan munosabatini olaylik.

Farzandlar ham turlicha bo'ladi. Onasining barcha dardlariga va qiyinchiliklariga sherik bo'ladigan farzandlar va baxtsizligida yolg'iz tashlab ketadigan farzandlar ham topiladi.

Vatanning go'zal tabiatini, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farxandlar ham afsus oramizda uchrab turibdi. Vatanni qanday sharoit bo'lmasin sevish, huddi o'z onamizday sevishimiz kerak. Bobolarimiz "Kishi o'zga yurtida sulton bo'lguncha, o'z yuritda gado bo'gan ma'qul" deb bejiz aytishmagan.

Insonni go'zal qilib bezaydigan sifatlar va hislatlar talaygina. Chinakam inson yalqovlik va dangasalikni o'ziga nomus deb biladi va bunday illatlarga o'zini hech qachon qaram qilib qo'ymaydi. Yoshlik paytidan boshlab, ilm – ma'rifatga, hunar va san'atga mehr qo'yadi.

Mehnatning aybi yo'q. qora ishchi biln olimning zaxmati ko'rinishdagina har xil bo'lishi mumkin. Ularning ikkalasi ham halol mehnat. Biri ko'proq jismoniy, biri esa ko'proq aqliy mehnat qiladi. Bu ikkisining farqi ham shunda deb bilishimiz mumkin. Yana shunday go'zal hislatlar bor.

Ularning nomini eshitganimizdayoq borlig'imizni yoqimli va iliq hislar chulg'ab oladi.

Agar ular bo'lmaganda hayot zulmatdan, tirikchilik esa vaxshiyona kun o'tkazmoqdan iborat bo'lib qolar edi. Muhabbat, sadoqat, xayrixohlik, oliyjanoblik kabilar hayotga bur, quvonch, umrga esa mazmun baxsh etadi. Insonning sharafli mavqeyida bularning o'rni o'zgacha.

Muhabbatning qamrovi ancha keng ular vatanga, xalqqa, do'stga, yorga muhabbat tarzida ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Lekin uning to'liq mazmunida bir narsa juda qiziq. Muhabbat – kimgadir, nimagadir chanqoq birla intilish, uni o'zining jon – ta'ni deb bilish, butun borlig'ini ung baxshida etish tuyg'usi bilan yonish, uni hamisha baxtiyor va shodon etmoqqa bo'lgan buyuk

ishtiyoq. U shunday katta kuchki, sahroni bo'stonga aylantira oladi, toshdan gul undira oladi, eng badjahil insonni ham samimiy va yoqimli insonga aylantira oladi.

Avloniy bolalarni o'zaro do'st, hamkor va hamdast bo'lishga chorlar ekan, bu dunyoda xiyonat va sohtalik degan illatlar ham borligini ma'lum qiladi. Yoshlarni unday illatlardan uzoq yurishga chorlaydi. Chin do'st bo'lgan kishi boshingga kulfat va qayg'u kelgan vaqtlarda ham sen bilan barobar qayg'urar, xotirangdagi qayg'uni am bo'lishib oladi. Siringni noahil va nodon kimsalarga aytmaydi. Uni o'z siri kabi himoya qiladi. Aybingni orqangdan hech qachon so'zlamaydi, zarur bo'lgan payt uni yuzingga aytadi. Shodlik vaqtingda sen bilan birga shodlanadi, yomon kuningda esa sen bilan barobar g'am – tashvish chekadi. Bunday kishilar bilan do'st bo'lmoqdan ko'ra do'stsiz o'tmoqlik haqida so'z yuritadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Abdulla Avloniyningmazkur asari orqali biz bir qancha axloqiy fazilatlar haqida boy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Asarda barcha axloqiy sifatlar mohirlik bilan, tushunarli qilib namoyon qilib berilgan. Tarbiya, xulq, axloq, muhabbat, hayo, aql, esgulik, yaxshilik, yomonlik, hudbinlik, g'azab, yalqovlik, xasislik, takabburlik, chaqimchilik, g'iybat habi axloqiy sifatlarini ham yaxshi yoritib bera olgan.

Yoshlarnibunday yomon illatlardan uzoq yurishi, do'stlariga, oilasiga va atrofdagi barcha insonlrga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishi zarurligi haqida ta'kidlab o'tgan. Bu asarda biz o'zimiz uchun tarbiya olishimiz mumkin bo'lgan sifatlar talaygina.

REFERENCES

1. Olim Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Toshkent.
2. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev. Vatan tarixi. Toshkent. 2010.
3. www.Ziyo.uz kutubxonasi.
4. <https://uz.wikipedia.org> sayti.
5. Z.Ilhomov. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022.
6. A. Avloniy. Uson millat. Toshkent.